XALQARO QOIDALAR ASOSIDA QIMMATLI QOG’OZLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Xolmirzayev Ulug’bek Abdulazizovich
Namangan muhandislik-qurilish instituti, Namangan, O’zbekiston.
el.pochta: xulugbek1984@gmail.com ORCID: 0000-0002-3589-373X
https://doi.org/10.5281/zenodo.7595046

Annotatsiya. Maqolada moliyaviy aktivlarning muhim turi bo’lgan qarzli hamda hissali qimmatli qog’ozlarning hisobini ularga egalik qilish maqsadi bo’yicha tashkil qilish masalalari tadqiq etilgan.
Kalit so’zlar: qarzli qimmatli qog’ozlar, hissali qimmatli qog’ozlar, moliyaviy aktivlar, hisob ob’ekti.
Abstract. The article examines the issues of organizing the account of debt and equity securities, which are an important type of financial assets, according to the purpose of their ownership.
Key words: debt securities, equity securities, financial assets, account object.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda moliya bozorida faoliyat ko’rsatayotgan yoki unda qatnashchi sifatida ishtirok etayotgan sub’ektlarni moliyaviy sektor faoliyatlaridan olayotgan daromadlari jami daromadlari tarkibida sezilarli salmoqqa ega bo’lmoqda. Demak, moliyaviy bozor korxonalar uchun daromad olishni yana bir yo’li ekan. Bundan tashqari korxonalar boshqa korxonalarni biznes faoliyatlarini ularning turli qimmatli qog’ozlarni sotib olib moliyalashtirish, moliyalashtirish vositalari bilan ular nazoratini yoki boshqaruvini qo’lga olib sheriklikga asoslangan hamkorliklarni amalga oshiradilar. Korxonalar boshqa korxonalarni o’z faoliyati uchun ishlatish masalasida turli moliyaviy instrumentlardan foydalanadilar.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida korxonalarni moliyaviy instrumentlar vositasida hamkorlik qilishlari shakllangan va tobora rivojlanib bormoqda. Lekin, ta’kidlash kerakki bu borada qator amalga oshirilishini kutib turgan qator tadbirlar ham mavjud. Tadbirlarni samarali tatbiq etilishi ko’plab korxonalarni moliya bozorida ishtirok etishini yanada tezlashtiradi, deb hisoblaymiz.

Korxonalarni moliyaviy bozordagi faoliyatlarni, ham makro, ham mikro maydonda xalqaro talablarga javob beradigan darajada tashkil etish va yuritishni amalga oshirishning yo’llaridan biri - xo’jalik yurituvchi sub’ektlardagi hisob tizimidagi moliyaviy investitsiyalar hisobi va hisobotini, umuman olganda hisob tizimini to’laligicha moliyaviy hisobotni xalqaro standartlariga o’tkazish hamda iqtisodi rivojlangan mamlaktlardagi tajribalardan maqsadga muvofiq foydalanishdir.

Mazkur tezisda, biz maqsad va vazifalardan kelib chiqib faqat moliyaviy aktivlarning bir turi bo’lgan qarzli hamda hissali qimmatli qog’ozlar hamda ularning hisobi va hisoboti to’g’risida o’z fikrlarimizni bildiramiz. Xalqaro hisob standartlariga ko’ra korxonalardagi moliyaviy investitsiyalar moliyaviy instrument tarkibiga kirib, ularda moliyaviy aktivlar nomi bilan tavsiflanadi.[1]

Dastavval, korxonalar moliyaviy aktivlarning bir bo’lagi bo’lgan qimmatli qog’ozlarni hamda hissali instrumentlarga nima maqsadida egalik qilishiga e’tibor qaratsak. Bu boradagi maqsadni to’rt yirik guruhga bo’lish mumkin:

1. Qarzli qimmatli qog’ozlardan (Debt Securities) – yuqori stavkada qaytim (foiz va shu kabilar) olishga erishish.
2. Hissali qimmatli qog’ozlardan - yuqori stavkada qaytim dividend olishga erishish.
3. Qarzli hamda hissali qimmatli qog’ozlarni aktiv (kapital) tarzida sotib foyda olish.
4. Hissali qimmatli qog’ozlar – hissa qo’shilgan korxonalar biznes faoliyatini nazorat qilish hamda ular faoliyatni barqarorligini ta’minlash uchun moliyaviy qo’llab-quvvatlashni amalga oshirish.

Mazkur hisob ob’ekti to’g’ri boshqarilgandagina samara berishi mumkin. Boshqaruv esa o’z vaqtida olingan, etarli va sifatli ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi. Qanday, qancha va qay vaqtda etkaziladigan ma’lumotlar mexanizimi korxonalardagi menejment maqsadi hamda qarzli hamda hissali qimmatli qog’ozlarni o’ziga xos jihatlarini e’tiborga olgan holda tashkil etiladi va yuritiladi. Menejment maqsadi faqat ichki foydalanuvchilar emas, balki tashqi foydalanuvchilarning talablarini hamda bu boradagi rasmiy majburiyatlar (standartlar) ni ham e’tiborga oladi, albatta. Fikrimizni quyidagi jadvalda ifodalab beramiz.

Jadval

Qarzli hamda hissali qimmatli qog’ozlar hisobidagi yondashuv modeli[2]

Qimmatli qog’ozlar turi	**Menejement maqsadi**	**Baholash turi**	**Ichki foydalanuvchilar uchun ma’lumotlar shakllantirilishi**	**Barchaga taqdim qilinadigan moliyaviy hisobot uchun**
1	**2**	**3**	**4**	**5**
	Sotish rejalashtiril-	Amortizatsiya-lanadigan	Barcha talab etiladigan ma’lumotlarni berishga mos hisob mexanizmi	BHMS yoki BHXS va

[1] 32-сон БҲХС (IAS). “Молиявий инструментлар: ахборотларни тақдим этиш”
[2] Хориж тажрибаларидан фойдаланилга ҳолда муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Qarzli qimmatli qog’ozlar (1-yirik bo’lim)	magan	qiymatda	tashkil etiladi	MHXS asosida
	Sotish rejalashtirigan	Haqqoniy qiymatda	Barcha talab etiladigan ma’lumotlarni berishga mos hisob mexanizmi tashkil etiladi	BHMS yoki BHXS va MHXS asosida
Hissali qimmatli qog’ozlar (2-yirik bo’lim)	Sotish rejalashtirigan	Haqqoniy qiymatda	Barcha talab etiladigan ma’lumotlarni berishga mos hisob mexanizmi tashkil etiladi	BHMS yoki BHXS va MHXS asosida
	Nazoratni amalga oshirish	Hissali metodda	Barcha talab etiladigan ma’lumotlarni berishga mos hisob mexanizmi tashkil etiladi	BHMS yoki BHXS va MHXS asosida

Izoh: BHXS - Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari.

MHXS – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari.

BHMS - Buxgalteriya hisobining milliy standartlari.

Jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki korxonada mazkur turdagi moliyaviy aktivlar ikki yirik - qarzli hamda hissali qimmatli qog’ozlarga ajratilmoqda. Har bir alohida olingan yirik bo’lim esa menejement maqsadidan kelib chiqib sotish rejalashtirilmagan, sotish rejalashtirigan yoki zarur nazoratlarni amalga oshirishga tayinlanganligiga qarab tegishli kichik bo’limlar bo’yicha tasniflanmoqda.

Alohida kichik bo’limda tasniflangan qimmatli qog’ozga mos baholash usuli belgilangan. Jadvalning 4-ustunida har bir alohida olingan kichik bo’lim to’g’risida barcha talab etiladigan ma’lumotlar va axborotlarni shakllantirib berishga tayinlangan hisob mexanizmi bo’lishi zarurligi ko’rsatilgan. Jadvalning 5-ustunida esa ob’ekt bo’yicha moliyaviy hisobotda barchaga e’lon qilinadigan axborotlarni BHMS yoki BHXS hamda MHXS asosida taqdim etish zarurligi qayd etilgan.

Moliyaviy hisob va hisobot tizimini hali BHXS yoki MHXS ga o’tkazmagan mamlakatlar mazkur jarayonni BHMS asosida amalga oshiradi.

Aksincha, moliyaviy hisob va hisobot tizimini BHXS hamda MHXS ga o’tkazgan mamlakatlar esa xalqaro standartlar bo’yicha bajaradilar. Basharti, moliyaviy hisob va hisobot tizimi BHXS hamda MHXS ga muvoqlashtirib ishlab chiqilgan mamlakatlarda taqdim qilinga mazkur hisob ob’ektlariga, ularning farqli jihatlariga BHXS hamda MHXS talablaridan kelib chiqib tushuntirishlar beriladi.

Yuqorida aytib o’tilgan fikrlardan korxonalar faoliyatidagi moliyaviy aktivlar tarkibiga kiruvchi qarzli hamda hissali qimmatli qog’ozlar hisobi va hisoboti bo’yicha hisob siyosatidagi taktik va strategik maqsadlarni ishlab chiqishda, bu boradagi xalqaro hisob va hisobot standartlarga milliy hisob ob’ektlarini muvofiqlashtirishda hamda iqtisodi rivojlangan mamlakatlardagi tartiblar bilan mos keladigan masalalarni hal qilishda foydalanish o’z nafini beradi, deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори 2020 йил 24 феврал, №ПҚ-4611: “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”

2. 32-сонли БҲХС “Молиявий инструментлар: ахборотларни тақдим этиш”

3. Donald E. Kieso, Jtrry J. Weygandt, Terry D. Warfield. INTERMEDIATE ACCONTING. John Wiley & Sons, USA. 2004. 1331 p.

4. Xolmirzaev, U. A. (2020). Financial assets and improvements of their analysis. Экономика и социум, (1), 102-105.

5. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. Экономика и социум, (1), 48-52.

6. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2019). Profits of housekeeping and its development. TRANS Asian Research Journals, 8(4).

7. Холмирзаев, У. А. (2021, October). ҚИСҚА МУДДАТЛИ ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАРНИ АНАЛИТИК ҲИСОБИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. In " ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 396-399).

8. Juraev, E., Xolmirzaev, U. A., & Rustamova, M. (2021). INCREASING THE EFFICIENCY OF REAL INVESTMENT IN THE CONDITIONS OF ECONOMIC LIBERATION. Интернаука, (21-5), 9-11.

9. Хакимов, Б., Талабоев, Х., & Холмирзаев, У. (2021). ВОПРОСЫ УЛУЧШЕНИЯ АНАЛИЗА ОБРАЩЕНИЯ ДОЛГОВОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ НАПРАВЛЕНИЯ. Экономика и социум, (6-2), 441-446.

10. Xolmirzaev, U., Juraev, E., & Axmadjonova, M. (2021). THE ROLE OF ACCOUNTING IN SMALL BUSINESS MANAGEMENT. Интернаука, (21-5), 20-22.

11. Камолов, А. А., & Холмирзаев, У. А. (2016). Малый бизнес и частное предпринимательство в Узбекистане. Вопросы экономики и управления, (5), 182-184.

12. Xolmirzaev, U. A., & Juraev, E. S. (2020). Problems of improvement of debitor debt debt analysis. Мировая наука, (1), 100-105.

13. Abdurahmon, K., & Abdulazizovich, K. U. (2021, December). SOME

ISSUES OF IMPROVING SECURITIES ACCOUNTING. In Conference Zone (pp. 129-132).

14. Gulshirin, J., & Abdulazizovich, X. U. B. (2022, March). INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT IN THE DEVELOPMENT OF EXPORT DIVERSIFICATION IN THE REGION. In Conference Zone (pp. 277-281).

15. Sirojiddinov, I., Xolmirzaev, U., & Axmadjonova, M. (2021). THE NEED AND FACTORS TO ACCELERATE THE DEVELOPMENT OF PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. Интернаука, (21-5), 14-16.

16. Xolmirzaev, U. A., Juraev, E., & Jamgirova, G. I. (2021). APPROACH TO ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS IN THE ENTERPRISE IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL STANDARDS. Интернаука, (21-5), 17-19.

17. Khakimov, B., & Kholmirzayev, U. (2020). IMPROVING CASH ACCOUNTING AND ANALYSIS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCES. International Finance and Accounting, 2020(1), 18.

18. Hakimov, B., Yunusov, M., & Holmirzayev, U. (2018). Elaboration of The Balance Sheet Liquidity Analysis-Requirements of The Period. International Finance and Accounting, 100.

19. Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. Экономика и социум, (2), 34-36.

20. Убайдуллаев, Т., & Холмирзаев, У. (2019). ФАКТОРЫ И ТЕНДЕНЦИИ ЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА. Мировая наука, (1), 299-302.

21. Abdulazizovich, K. U. (2022). IMPROVING METHODOLOGICAL APPROACHES TO FINANCIAL ASSET ACCOUNTING. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 56-62.

22. Abdulazizov, K. U., Sherzod, I., & Abdulkhodinevna, S. M. (2022). IMPROVING THE METHODOLOGICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR FINANCIAL ASSETS. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 34-39.

23. Abdulazizovich, X. U. B., Qutbiddinovich, S. I., & Sobirjon o’g’li, J. E. (2021). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL BUSINESSES IN A PANDEMIC ENVIRONMENT. American Journal of Economics and Business Management, 4(3), 1-8.

24. Abdulazizovich, K. U. IMPROVING THE REFLECTION OF MONEY AND CASH EQUIVALENT IN THE ACCOUNTING BALANCE. Dear Academicians & Research Scholars, 55.

25. Ogli, I. S. H., & Oglu, O. I. A. Peculiarities of the Development of

Industrial Production in Namangan Region. Volume, 9, 544-547.

26. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. (2021, December). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. In Conference Zone (pp. 123-128).

27. Abdullajanovich, U. T. (2022, March). THE ROLE OF INDUSTRIAL ENTERPRISES IN THE DEVELOPMENT OF THE NATIONAL ECONOMY. In Conference Zone (pp. 271-276).

28. Abdullajanovich, U. T. (2021). THE MAIN DIRECTIONS OF DIVERSIFICATION OF EXPORTS OF INDUSTRIAL PRODUCTS ON THE BASIS OF LOCALIZATION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(12), 70-75.

29. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. Ibrogimov Sherzodbek Halimjon ogli.(2021). In Development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Conference Zone (pp. 123-128).

30. Abdullayevich, A. O., & Abdullajanovich, U. T. (2021, December). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN UZBEKISTAN. In Conference Zone (pp. 123-128).

31. Xolmirzayev, A. X. (2021). RISK FACTORS AND UNCERTAINTIES IN THE ECONOMY. Мировая наука, (2), 24-27.

32. Юлдашев, К. М., & Холмирзаев, А. Х. (2019). Осуществление реализации механизма частного партнерства в Узбекистане. Молодой ученый, (51), 435-437.

33. Roxatalievich, S. B., Xakimovich, A. R., Mamadjanovic, Y. K., Xapizovich, H. A., & Bulturbayevich, M. B. (2020). The Results Of The Assessment Of The Investment Potential Of The Regions Of The Republic Of Uzbekistan. European Journal of Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 4428-4437.

34. Ишимбаев, Р. Н., & Холмирзаев, А. Х. (2021). ЦИФРОВИЗАЦИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. Экономика и социум, (7), 304-307.

35. Холмирзаев, А. Х., & Ишимбаев, Р. Н. (2021). СУЩНОСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МАЛОГО БИЗНЕСА И ВАЖНОСТЬ РАЗВИТИЯ. Экономика и социум, (7), 520-526.

36. Kholmirzaev, A. K. (2021). Criteria and directions of development of small business activities. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(6), 730-735.

37. Yuldashev, Q. M., Tursunov, N. N., & Kholmirzaev, A. X. (2020). Analysis of small business and private entrepreneurship in the development of the economy of the republic of Uzbekistan. South Asian Journal of Marketing & Management Research, 10(8), 60-67.

38. Abdullayevich, A. O. (2022). OPPORTUNITIES FOR SUSTAINABILITY OF SMALL BUSINESS ENTERPRISES ON THE BASIS OF IMPROVING THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11, 83-87.

39. Abdullayevich, A. O. (2022). THE DEVELOPMENT OF MANAGEMENT SCIENCE IN THE ANCIENT WORLD. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 33-39.

40. Арипов, О. А. (2012). Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни давлат томонидан тартибга солиш. Т.: Фан, 272.

41. Арипов, О. А. (2015). Современное развитие малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане. Молодой ученый, (22), 332-334.

42. Sirojiddinov, I. Q., & Abdumalik o’g’li, M. M. (2022, June). SIGNS AND APPEARANCE OF ECONOMIC HELPLESSNESS. In Conference Zone (pp. 8-14).

43. Tursunpulatovna, N. N. (2022). THEORETICAL ANALYSIS OF THE CONTENT AND CHARACTERISTICS OF MARKET COMPETITION. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(4), 79-85.

44. Tursunpolatovna, N. N. (2022). NEED AND DUTIES OF ACCOUNTING IN BUSINESS ENTITIES. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876, 16(11), 8-12.